

KOREYS TAQINCHOQLARINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Abdullayeva Gulorom Maxmudovna

Samarqand davlat chet tillar instituti koreys filologiyasi talabasi

Email:abdullayevtolqin50@gmail.com

Ilmiy rahbar: Rabbanoyev Javlon Omonkulovich

Annotatsiya: Ushbu maqolada koreys taqinchoqlarining boy tarixi, madaniyati va simvolik ma'nolari haqida batafsil ma'lumot berilgan. Shuningdek, an'anaviy va zamonaviy taqinchoqlarni o'rganish orqali, ularning Koreya jamiyatidagi o'rni va ahamiyatini ko'rsatadi. Maqolada taqinchoqlarni tayyorlash jarayoni, ularning materiallari va dizaynlari haqida ham ma'lumotlar keltirilgan. Bu maqola, nafaqat taqinchoqlarga qiziqqanlar uchun, balki Koreya madaniyatini chuqurroq o'rganmoqchi bo'lgan har bir kishi uchun foydali manba bo'ladi.

Kalit so'zlar: Taqinchoqlar, ma'naviy va ramziy ma'no, rivojlanish tarixi, taqinchoqlarning tabiat bilan uzviy bog'liqligi, nefrit toshlari, uch qirollik davri, zargarlik san'ati, noyob bilakuzuklar, ma'naviy va ramziy ma'no, koguryo, kyunju.

Koreys taqinchoqlari o'zining maftunkorligi va jozibasi bilan uzoq yillardan buyon tadqiqodchilarning e'tibor markazida turadi. Bunga sabab shuki, koreys taqinchoqlari yillar o'tsada o'zining takrorlanmas jozibasini hali ham yo'qotgani yo'q, aksincha, yillar o'tgani sayin yanada yangidan-yangi qirralarini namoyish qilmoqda.¹

Har bir davlat tarixida takrorlanmas kashfiyotlar bor, shuningdek, koreya tarixida ham mana shunday bir-birini takrorlamaydigan kashfiyotlardan biri bu taqinchoqlardir. Ularning o'ziga xosligi shundan iboratki, taqinchoqlar nafaqat ayollarning go'zalligini oshirishda yordamchi bo'lgan balki, koreys xalqining uzoq o'tmishidan hikoya qilgan. Shuningdek, koreys taqinchoqlarining abadiy merosi mamlakatning innovatsion yorqinligi va badiiy iste'dodini namoyish etish orqali o'tmish va bugungi kunni bog'laydi. Koreys taqinchoqlarining ayni takomillashuv jarayoni uch qirollik davriga to'g'ri keladi, bu davrda zargarlik san'atining murakkabligi ortib, nafis oltin va kumush buyumlar paydo bo'ldi.

Bu davrda zargarlik buyumlari va ularga mos ravishda soch turmklari ham obro'ga aylandi. Zargarlik buyumlaridan foydalanish bu odamlarning e'tiborini tortibgina qolmay, odamlarning turmush tarzidan ham xabar bergandir. Zargarlik buyumlarining paydo bo'lish tarixiga nazar tashlasak, uzoq o'tmishni o'z ichiga oladi.

Uch qirollik davrida odamlar turli xil nefrit toshlari, oltin, kumush kabi metallardan zirak, bilakuzuklar, tojlar yasay boshlashadi. Keyinchalik hunarmandlar bunday haqiqiy mo'jiza bo'lgan taqinchoqlarni o'z avlodlariga meros qilib qoldirish maqsadida ularni qabrlarga ko'madilar. Buning sababi shundaki, bu davr odamlari taqinchoqlarni bu tarzda saqlash eng xavfsiz usul deb o'ylaganlar. Shuningdek, bu davrda koreys taqinchoqlarining ko'pchiligi hukmdorlar va ularning yaqin qarindoshlari qabrlariga ular bilan birga ko'milgan. Bu holat

¹ Koreys hunarmandchiligining chiroyli tarixi kitobidan, 2002-yil, 81-b.

shuni anglatadiki, bu davrda hukmdor oilalar qimmatbaho taqinchoqlardan ko‘p foydalanganlar.²

Qadimgi Koguryo davlati hukmdor avlodining qabridan topilgan noyob bilakuzuklar bu so‘zimizga yaqqol misol bo‘la oladi. Tadqiqotchilarning fikriga nazar tashlasak, oltin bu davrda shunchaki savdo vositasigina emas, taqinchoqlarni yasashda asosiy metallardan biri bo‘lgan. Oltindan foydalangan insonning obro‘sini, or-nomusini, estetikasini, boyligini ko‘rsatgan. Qazishma ishlari natijasida qabrdan qazib olingan zarhal bronza toji e’tiborni tortadi, buning sababi bu davrda bilakuzuklarga, tojlarga ko‘rshapalak naqshini o‘yib ishlash juda keng tarqalgan edi. Koguryoning an’anaviy uslubidan farqli o‘laroq bunday taqinchoqlarda buddist an’anasidan keng foydalanishgan. Oltin va bronzadan yasalgan bunday taqinchoqlar tasmaga o‘xshash ko‘rinishga ega. Bu tojlarning eng asosiy xususiyatlaridan eng muhim jihatni ham aynan shunda, chunki, bunday tojlar o‘sha paytda buddist avliyolar, ayniqsa, badxistva haykallari tomonidan foydalanilgan toj bo‘lishi mumkin. Bunday tojlarning aylana qismida quyosh ramzi bo‘lgan uch oyoqli qarg‘a o‘yib ishlangan bo‘lib, buning ma’nosini foydalanuvchining siyosiy darajasini oshirgan. Keyinchalik halqali zirak va qalin halqali ziraklar keng tarqala boshladi. Ziraklarni nefrit toshlaridan yasash urf bo‘ldi, sababi u mo‘l-ko‘llik ifodasini beradi. Shu bilan birga, Kyonju shahrida qabrlardan olingan shishadan yasalgan nefrit marjonlar turli qimmatbaho toshlar yordamida yasalgan noyob buyum bo‘lib, Koreys madaniyatini bizga tanishtiribgina qolmay, kichkina shisha dumaloq nefritga o‘yilgan odamlar, bulutlar va qushlarning naqshlari diqqatni tortadi. Bu naqshlar hayotga bo‘lgan muhabbatni anglatib teoistik dunyoqarashni o‘z ichiga oladi.

Ushbu ma’lumotlarni umumlashtirib xulosa qiladigan bo’lsam, Koreys taqinchoqlari, asosan, Koreya madaniyatining muhim bir qismi bo‘lib, ularning tarixi va ma’nosini juda qiziqarli. Ushbu taqinchoqlar odatda an’anaviy va zamонавиy uslublarda yaratiladi, shuningdek, ular ko‘plab turli materiallardan, masalan, oltin, kumush, toshlar va boshqa tabiiy materiallardan tayyorlanadi. Koreys taqinchoqlari nafaqat estetik jihatdan jozibali, balki ular ko‘pincha ma’naviy va ramziy ma’noga ham ega. Koreys taqinchoqlari, ayniqsa, marosimlar va bayramlarda muhim ahamiyatga ega. Ular ko‘pincha oilaviy meros sifatida avloddan-avlodga o‘tadi va shuning uchun ularning qiymati yanada oshadi. Masalan, „noriga“ deb ataladigan an’anaviy taqinchoq, ko‘pincha qizlar uchun to‘y marosimlarida ishlatiladi va bu taqinchoq qizning yangi hayotidagi baxt va farovonlik ramzi hisoblanadi. Zamонавиy davrda Koreya taqinchoqlari global madaniyatda ham o‘z o‘rnini topdi. K-pop va Koreya dramalari orqali bu taqinchoqlar dunyo bo‘ylab mashhurlikka erishdi. Ko‘plab yoshlar koreys taqinchoqlarini o‘z uslubiga qo‘sib, ularni zamонавиy kiyimlar bilan birlashtirib kiyishadi. Umuman olganda, koreys taqinchoqlari nafaqat go‘zallik va san’atni ifodalaydi, balki ularning har biri o‘ziga xos hikoya va tarixga ega. Ular Koreya madaniyatining boyligini aks ettiradi va kelajak avlodlarga ham o‘z merosini yetkazishda davom etadi. Bu taqinchoqlar orqali biz Koreya xalqining qadriyatları, urf-odatlari va san’atiga chuqrarroq kirish imkoniyatiga ega bo‘lamiz.

² Koreys hunarmandchiligining chiroyli tarixi kitobidan, 2002-yil, 91-115 sahifalar oralig‘i.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. 아름다운 한국 공예의 역사 책부터, 이 천 이-년.
2. Koreys hunarmandchiligining chiroyli tarixi kitobidan, 2002-yil.
3. Korea tarixi / Tarjimon G.N.Kima. - Seul: Xalqaro Korea tarixi instituti. 2007
4. Koguryo devoriy rasmi kitobidan, 1999-yil.
5. Koreys zamonaviy san'ati kitobidan, 2001-yil.
6. Kyongjuning mashhur tarixi va uning muzeyi kitobidan, 1991-yil.

FOYDALANILGAN SAYTLAR

7. <https://thekoreaninme.com/blogs/korean-fashion/exploring-korean-jewelry-a-reflection-of-culture-and-tradition>